



0187

2025-yil 30-dekabr

**“O‘ZKIMYOSANOAT”
AKSIYADORLIK JAMIYATI
BUYRUQ**

Toshkent sh.

**“Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid
ichki me’yoriy hujjatlarni tasdiqlash
to’g’risida”**

O‘zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining yanada samaradorligini oshirishga qaratilgan 2025-yil 5-iyunda qabul qilingan “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi “Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari mustaqilligini ta’minlash hamda faoliyat samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-147-son qarori va “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-71-son Farmonlarida belgilangan talablar ijrosini ta’minlash maqsadida

B U Y U R A M A N:

1. Mazkur hujjatlar ijrosini ta’minlash hamda qonunchilik talablari asosida kiritilgan o‘zgartirishlarni inobatga olgan holda, quyidagi ichki me’yoriy hujjatlar qayta tasdiqlansin:

- “O‘zkimyosanoat” AJning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha siyosati 1-ilovaga muvofiq;

- “O‘zkimyosanoat” AJ manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha nizom 2-ilovaga muvofiq;

- Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan “O‘zkimyosanoat” AJ va uning tarmoq korxonalaridagi xodimlarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizom 3-ilovaga muvofiq;

- “O‘zkimyosanoat” AJning Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens boshqarmasi to‘g‘risidagi nizom 4-ilovaga muvofiq.

2. Ro'yxatga olish va murojaatlar bilan ishlash bo'limi (Kadirov) tomonidan mazkur hujjatlarni tegishliligi bo'yicha mas'ullar va xodimlarga tanishtirilsin.

3. Boshqaruv raisi o'rinbosarlari, departament, boshqarma, xizmat va bo'lim boshliqlari tomonidan mazkur ichki me'yoriy hujjatlar talablarini faoliyatlarida qo'llash choralari ko'rilsin.

4. Odob-axloq, xodimlarni ishga qabul qilish, xarid qilish va boshqa komissiyalar mazkur ichki me'yoriy hujjatlar talablari tegishliligi bo'yicha faoliyatda qo'llanilsin.

5. Ro'yxatga olish va murojaatlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i (Kadirov) ushbu buyruq va ilovada ko'rsatilgan hujjatlar "O'zkimyosanoat" AJning tarmoq korxonalariga o'z vaqtida yetkazilishi ta'minlasin.

6. "O'zkimyosanoat" AJ tarmoq korxonalari rahbarlari o'z tashkilot va korxonalaridagi korrupsiyaga qarshi kurashishga oid hujjatlarni ushbu buyruq ilovasida ko'rsatilgan hujjatlar talablariga muvofiqlashtirsin.

7. Axborot texnologiyalari va axborot xavfsizligini rivojlantirish boshqarmasi (Axmedov) buyruq va ilovalarda ko'rsatilgan hujjatlarni "O'zkimyosanoat" AJning rasmiy veb-sahifasiga joylashtirsin.

8. "O'zkimyosanoat" AJ yagona aksiyadorining 2021-yil 24-noyabrdagi 7-son qarori, 2022-yil 16-noyabrdagi 175-son buyrug'ining 4-ilovasi, "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisining 2023-yil 13-fevraldagi 1-son qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

9. Mazkur buyruqning ijro nazoratini o'z zimamda qoldiraman.

Boshqaruv raisi



O. Sh.Temirov

Rozilik

**Departament boshlig'i
o'rinbosari**



M. E. Kulmetov

Yuridik boshqarmasi boshlig'i



T. A. Ibadullayev

Bo'lim ichida rozilik

Boshqarma boshlig'i



M. A. Mavlyanov

Mas'ul

Bosh mutaxassis



Sh.R. Obidov